

Silliq va shimmas yuzalarni tayyorlash uchun maxsus grunt: devor plitkasi, plastmassa va plastik elementlar, PVX plintuslar, laminat, laklangan yog'och, duradgorlik plyonkalari va laminatsiyalar, melamin, alkid bo'yoq bilan avval bo'yalgan devorlar – quruq ichki xonalar uchun.

Adgeziyani faollashtiradi, bo'yoq yoki dekorativ materialni asos bilan ishonchli bog'laydi. Pol qoplamalarida, nam zonalarda, shisha yuzalarda, shuningdek ilgari nitrotsellyuloza lak bilan yoki kukunli bo'yash usulida bo'yalgan buyumlarda qo'llanilmaydi.

SIRTNİ TAYYORLASH

- + Yuzani kir, chang, yog' dog'lari va ohak qoldiqlaridan tozalang. Ishqoriy yuvish vositasi bilan yuvib, suv bilan chaying va quriting. Imkon bo'lsa, yog'sizlantiring.
- + Yuzani R240, R320 abraziv bilan mat holatga keltirib silliqlang. Silliqlash changini olib tashlang.
- + Ishlatishdan oldin adgezion to'ldiruvchini ko'tarish uchun gruntni yaxshilab aralashtiring.

! Adgezion grunt ranglanmaydi va suv bilan **SULTIRILMAYDI!**
Asboblar iliq suv va sovun bilan tozalanadi.

SURTISH



O'rtacha tukli (12 mm) poliakril valikdan foydalanish tavsiya etiladi. Bir tekis qatlam qilib surting, oqib ketish, to'planish va qoldirib ketishga yo'l qo'ymang. Asbobni yuzaga siqmang, materialni tejming. Relief yuzalar uchun gubka bilan tamponlash yoki sun'iy tolali, uchlari ajratilgan cho'tka bilan surtish mumkin. Ortiqcha gruntni albatta olib tashlang, uning relief chuqurligida to'planishiga yo'l qo'ymang. Ikki qatlamda surtiladi, qatlamlar orasida 6-8 soat quritiladi.

Adgezion to'ldiruvchilar mavjudligi sababli, havo yoki havosiz purkagich bilan qo'llash tavsiya etilmaydi.

TAVSIYALAR

Bo'yashdan oldin grunt qatlamlari ob'ekt harorat sharoitlarini hisobga olgan holda to'liq qurishi kerak. Ikkinchi qatlamdan so'ng, mustahkamlanishi uchun gruntni kamida 24 soat quritib qo'ying.

-  **Qatlamlar orasida qurish: 6-8 soat.**
To'liq qurish vaqti: 24 soat.